



**MULTIMEDIA VOSITALARINI TA'LIMDA QO'LLASHNING ASOSIY  
MUAMMOLARI VA KAMCHILIKLARI**

**A.Karajanova 1, D.Qutlimuratova 2, Q.Shintemirova 2, D.K.Sipatdinova 2**

1 *Muhammad Al-Xorazmiy nomidagi TATU Nukus filiali*

2 *Nukus shahar №1 sonli kasb-hunar maktabi o'qutivchilari*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada multimedia dasturlarini yaratish bo'yicha mashg'ulotlarning tashkil etilishi va unda talabalar bilimini baholash jarayoni yuzasidan 6 ta modul va 4 ssenariy asosida taklif va tavsiyalar, metodik ko'rsatmalar; multimediali o'qitish vositalaridan samarali foydalanish mezonlarini shakllantirish bo'yicha tavsiyalar; talabalarning multimedia dasturlari bilan ishlash bo'yicha bilim va ko'nikmalarini baholashning zamonaviy usullarini tahlil qilingan va tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Ta'linda multimedia vositalari, ta'lim beradigan multimedia, maktablarni axborot-ta'lim, ta'lim tizimini kompyuterlashtirish.*

Ta'linda multimedia vositalaridan foydalanishning umumiyligi bo'lgan birmuncha salbiy taraflari ham mavjud. Ular jumlasiga diqqatning bo'linishi, materiallarni yaratishdagi murakkabliklar, vaqtning ko'proq talab etilishi, dasturiy ta'minot va texnika vositalarini sozlash va foydalanishda vujudga keladigan muammolar, axborotlarni kompyuter ekranidan o'qish jarayonidagi qiyinchiliklar va boshqa jihatlar kiradi.

Diqqatning bo'linishi. Axborotlarni taqdim etishning murakkab usullaridan foydalanish aksariyat hollarda har xil nomutanosibliklar tufayli ta'lim oluvchilar diqqatini o'rganilayotgan asosiy mavzudan chalg'itishi mumkin.

Multimedia vositalarida taqdim etilayotgan katta hajmdagi ma'lumotlar, turli havola (ssibika) va shu kabilar dars jarayonida o'quvchi diqqatini bo'lishi mumkin. O'quv materiallarni yaratishdagi murakkabliklar. Multimedia vositalarining audio, video, grafik va boshqa elementlarini yaratish an'anaviy matn ko'rinishidagi materiallarni yaratishdan ancha murakkab.

Vaqtning ko'proq talab etilishi. Multimediali materiallarni mustaqil ravishda yaratish singari multimediali dan ta'lim oluvchi sifatida foydalanish ham birmuncha ko'proq vaqt sarflanishini talab etadi. Ayniqsa, multimediali ta'lim vositalarini yaratish uchun ko'p vaqt va diqqat kerak bo'ladi.

Dasturiy ta'minot va texnika vositalarini sozlash va foydalanishda vujudga keladigan muammolar. Multimediali ta'lim vositalaridan samarali foydalanishni ta'minlash uchun dasturiy ta'minot va texnika vositalari talab darajasida sozlangan bo'lishi surur. Bunda multimediali ta'lim materiallarni taqdim etish jarayoni matnlarni tahrirlash va aks ettirishning oddiy vositalariga qaraganda yanada yuqori sifat va keng imkoniyatlar talab etadi.



Axborotlarni kompyuter ekranidan o'qish jarayonidagi qiyinchiliklar.

Kompyuter ekranidan axborotlarni o'qish qog'ozga chop etilgan axborotlarni o'qishga qaraganda noqulayroq. To'liq o'qib chiqishni talab etadigan katta hajmdagi matnli axborotlarni, shuningdek, gazeta, kitob va jurnallarni qog'ozda chop etilgan variantda o'qish birmuncha qulay. Aksariyat hollarda multimedia vositalarida zarur axborotlarni topish va uni qog'ozga chop etib olish uchun ma'lumotlarni qidirish quroli taqdim etiladi.

Respublikamiz ta'lim tizimini kompyuterlashtirish borasida amalga oshirilgan bir qator chora tadbirlar, masalan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Joylarda kompyuterlashtirish va axborot-kommunikasiya texnologiyalarini yanada rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroridan so'ng ta'limda multimedia texnologiyalarining qo'llanilishiga e'tibor yanada ortdi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006 yil 7 iyundagi 110-soni "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi huzurida Multimedia umumta'lim dasturlarini rivojlantirish Markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qaroridan so'ng tashkil qilingan Markazga quyidagi vazifalar yuklatilgan:

- Ta'lim beradigan multimedia ilovalarini ishlab chiqish (Ta'lim beradigan multimedia ilovalarni ishlab chiqish bo'limi);
- Ilgari ishlab chiqilgan ta'lim beradigan elektron resurslarni va boshqa tillardagi nashrlarni O'zbekiston Respublikasida o'qitiladigan tillarga moslashtirish va mahalliy lashtirish (Ta'lim beradigan multimedia ilovalarni ishlab chiqish bo'limi);
- Kompyuter asbob-uskunalaridan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bo'yicha ta'lim beradigan resurslar va treninglardan foydalanish samaradorligini tadqiq qilish, tahlil etish hamda monitoringini olib boorish (Rivojlantirish va tadqiqotlar bo'limi);
- Xalq ta'limi xodimlari va o'qituvchilarini qayta tayyorlash hamda ularning malakasini oshirish institulari xodimlari uchun trening kurslarini ishlab chiqish va ularni o'tkazish (Trening kurslarini ishlab chiqish va ularni o'tkazish bo'limi);
- Axborot-ta'lim web-portali joylashtiriladigan server maydonchasini tashkil etish, qo'llab-quvvatlash va boshqarish (Server maydonchasini boshqarish bo'limi);
- Axborot-ta'lim web-portalini tashkil etish va qo'llab-quvvatlash (Server maydonchasini boshqarish bo'limi);

Maktablarni axborot-ta'lim web-portaliga kiritish (Server maydonchasini boshqarish bo'limi).

Hozirgi kunda masofadan ta'lim berish tizimi ham sezilarli darajada rivojlanmoqda. Masalan yuqorida to'xtalib o'tilgan markaz tomonidan ham masofaviy ta'lim tizimi yo'lga qo'yilgan bo'lib, bu tizimda bir qancha yo'nalishdagi masofaviy kurslar tashkil qilingan. Masofaviy kurslar tashkil qilishga viloyatlar va Toshkent shahri mutaxassislari ham jalb qilingan bo'lib, har bir viloyat bo'yicha tashkil qilinayotgan o'quv kurslari alohida joylashtirib borilmoqda.



## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Андреев, В.Е. Проблема формирования готовности к профессионалной мобильности у будущих специалистов / В.Е. Андреев // Вестник Череповецкого государственного университета. – 2012. – №1 (42). – С.101-104.
2. Попова Н.Е., Бородулина О.М. Условия использования мультимедийных средств обучения в образовательном процессе / Н.Е.Попова, О.М. Бородулина // Профессиональное образование: модернизационные аспекты: коллективная монография / Под науч. редакцией О.П. Чигишевой. Т4. - Ростов-на-Дону: Научное сотрудничество, 2014. - с. 204-229.
3. Хамидов В.С. Методы и модели веб ориентированных адаптивных обучающих систем/LAP LAMBERT Academic Publishing, Germany. 228 стр.
4. Xamidov V.S. Erkin va ochiq kodli LMS tizimlar tahlili, infocom.uz jurnali №7,8. 14 bet, 2013 y.